**Ключевые слова:** Профессиональное выгорание, эмоциональное выгорание, методика Бойко, профессиональный стресс, педагог, напряжение, резистенция, истощение, стаж работы, психологическая устойчивость, система "человек–человек", профессиональная компетентность.

## KIRISH

Mamlakatimizda so'nggi yillarda o'qituvchi-pedagog kasbiga o'lgan e'tibor ortib bormoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi maqsadlarining 44-bandida maktablarda ta'lim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish, maktabda faoliyat olib borishi uchun har bir fan bo'yicha mahalliy yoki xalqaro sertifikatsiya talablarini belgilash, toifaga ega bo'lmagan maktab o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini diagnostikadan o'tkazish, umumta'lim maktablarini, ayniqsa, chekka hududlardagi ta'lim maskanlarini oliy ma'lumotli pedagog kadrlar bilan to'ldirish ishlarini davom ettirish kabi aniq maqsadlar belgilangan [1].

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So‘nggi yillarda insonning turli kasb sohalarida stressga barqarorligi va mazkur barqarorlikning shakllanish mexanizmlariga bog‘liq masalalarga qiziqish keskin ortishi kuzatilmoqda. Kasbiy stress va kasbiy so‘nish muammolarini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar “Inson-inson” tizimida mehnat qiluvchi kasb egalari – o‘qituvchi-pedagoglar, shifokorlar, psixologlar, savdo xodimlari va x.k.larda olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda qayd etilishicha, barqaror kasbiy stress kasbiy so‘nishga olib kelishi muqarrar. Bunday holatda mutaxassisning to‘la qonli faoliyati va faol hayotiy pozisiyasi apatiya va o‘z faoliyatiga nisbatan befarqlik bilan munosatda bo‘lishiga olib keladi, hayotiy qadriyatlarning yo‘qolishiga, (C.Maslach, S.Jackson, 2006), uning jismoniy va ruhiy salomatligiga ish sifatiga, kasbdoshlari va boshqa insonlar bilan munosabatlariga ta’sir ko‘rsatadi, L.N.Yuryeva, L.I.Larensova fikriga ko‘ra xattoki spirtli ichimlarga yoki narkotik moddalarga ruju qo‘yishi, ba’zi hollarda xattoki suisidga ham olib kelishi mumkinligini e’tirof etadilar.

Kasbiy stress va so‘nishni yuzaga keltiruvchi mexanizmlar mohiyati hali hanuz to‘liq ochib berilmagan. Bir qator olimlar mazkur hodisada asosiy o‘rinni shaxslilik xususiyatlari egallashini ta’kidlasalar, boshqa bir tadqiqotchilar kasbiy muhit ta’siri ostida yuz berishini qayd etadilar.

Turli kasblar sohasiga kiruvchi mutaxassislarda kasbiy stress va kasbiy so‘nish yuzaga kelish mexanizmlarining o‘ziga xosligi, omillari va xususiyatlari V.D.Mendeleyevich, R.M.Granovskaya, V.Yu.Ribnikov, Ye.N.Ashanina, D.Shuls, N.Ye.Vodopyanova, Ye.S.Starchenkova, A.I.Gubin, V.I.Yevdokimov, V.V.Boyko, L.I.Larensova, A.P.Zilber, K.M.Lebedinskiy va boshqalar ishlarida batafsil ilmiy jihatdan tahlil etilgan.

Mamlakatimiz olimlaridan E.G‘.G‘oziyev, G‘.B.Shoumarov, N.M.Majidov, D.G.Muxamedova, R.Gaynutdinov, V.M.Karimova, Sh.R.Barotov, A.R.Rasulov, I.I.Maxmudov, E.N.Sattorov va boshqalar turli kasb egalari kasbiy kompetentligining shakllanishi, ularda kasbiy muhim sifatlar namoyon bo‘lish xususiyatlari, shuningdek, kasbiy so‘nishni oldini olish choralari bo‘yicha bir qator ilmiy g‘oyalarni ilgari surganlar va amaliy tavsiyalar berganlar. Adabiyotlar tahlili o‘qituvchilardagi kasbiy so‘nish holatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy ishlar juda ozchilikni tashkil etishini ko‘rsatdi.

## TADQIQOT METODOGIYASI

**Tadqiqot ishining obyekti** sifatida Navoiy shahar 22-sonli umum ta’lim maktabi o‘qituvchilari qatnashdi.

**Tadqiqot ishining predmeti** – o‘qituvchilarda kasbiy so‘nishning o‘ziga xos xususiyatlari.

**Tadqiqot ishining maqsadi** o‘qituvchilarda kasbiy so‘nishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishdan iborat.

**Tadqiqotda qo‘llanilgan metodika tavsifi.** O‘qituvchilarda kasbiy so‘nish holatlarini o‘rganish maqsadida quyidagi Boykoning “Emosional so‘nish” metodikasi metodikasidan foydalandik.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Adabiyotlar tahliliga ko‘ra kasbiy so‘nish salbiy emosiyalarning ichda to‘planishi natijasida yuzaga keladi. Kasbiy so‘nish ko‘pincha ish sharoitlari va kasb joylari nomuqim va beqaror bo‘lgan kasb egalarida, birinchi navbatda “inson-inson” tizimida faoliyat yurituvchi kasb egalarida uchraydi. So‘nggi yillarda rivojlangan mamlakatlarda bu holat ko‘proq uchrashi qayd etilmoqda. Kasbiy so‘nish bu uzoq davom etgan surunkali stress natijasida rivojlanadigan sindrom bo‘lib, mehnat qiladigan insonni emosional-energetik va shaxslilik resurslarining holdan toyishiga olib keladi. G.Selye ta’rifiga ko‘ra, kasbiy yonish umumiy adaptasion sindrom – holdan toyish bosqichining uchinchi fazasi yoki distressdir.

E.Morrou kasbiy so‘nishni “psixologik o‘tkazmaning yonishdagi hidi” deb ataydi. Insonlarning qanday guruhlari kasbiy so‘nishga beriluvchan bo‘ladi.

*Birinchidan,* kasbiy so‘nishga xizmat taqozosi bilan turli insonlar, tanish va notanishlar bilan muloqotda bo‘ladigan kasb egalari kiradi. Avvalambor, bu rahbarlar, savdo menedjerlari, tibbiyot xodimlari, ijtimoiy ish xodimlari, konsultantlar, o‘qituvchilar, ichki ishlar xodimlari va boshqalardir. Binobarin, kasbiy so‘nishga birinchi navbatda intravertlar, individual-psixologik xususiyatlari kasb talablariga mos kelmaydigan, kommunikativ qobiliyatlari past odamlarda ko‘proq kuzatiladi. Ular alohida g‘ayrat bilan ajralib turmaydilar, tortinchoq, odamovi bo‘lib, aynan ular tashqi muhitga o‘z salbiy kechinmalarini “chiqara” olmaydilar va emosional diskomfortni boshdan kechiradilar.

*Ikkinchidan,* kasbiy yonish sindromiga kasbi bilan bog‘liq ichki nizolarga ega odamlar ko‘proq berilishi aniqlangan. Ham ishni, ham oilani baravariga olib borishga intilgan ayollar, ishxonada o‘z imkoniyatlari va qobiliyatlarini ko‘z-ko‘z qilishga intiladigan xodimlar, raqobatga intiluvchan insonlar ko‘proq berilar ekanlar.

*Uchinchidan,* kasbiy faoliyati beqarorlik, notinchlik, o‘tkir hodisalarga boy bo‘lgan kasb egalari, ish joyini yo‘qotib qo‘yishdan qo‘rqqan insonlar ham kasbiy so‘nishga tez berilar ekanlar.

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

*To'rtinchidan,* inson yangi, noodatiy sharoitga tushganda, o'zining yuqori samaradorligini ko'rsatishi zarur bo'lganda ham shunday holat yuzaga kelishi mumkin.

*Beshinchidan,* kasbiy so'nish sindromiga yirik megapolisda, jamoat joylarida notanish insonlar bilan doimiy muloqotda bo'lishga majbur insonlar uchraydilar.

Shuningdek, mualliflar fikriga ko'ra, salomatligi yaxshi bo'lgan, o'z jismoniy holati haqida doimiy qayg'uradigan, sport bilan shug'ullanadigan, o'zini o'zi baholash darajasi yuqori va o'ziga iongan, o'z imkoniyatlari va qobiliyatlarini to'g'ri baholaydigan insonlarda kasbiy so'nish minimal darajada uchrashi qayd etilgan. Kasbiy stressni muvaffaqiyatli yenga oladigan va zo'riqish sharoitlarida konstruktiv o'zgara oladiganlar, harakatchan, ochiq, mutaqil va o'z kuchiga tayanadigan insonlarda ham kasbiy so'nish uchramasligi e'tirof etiladi. Va nihoyat kasbiy so'nishga barqarorlik o'zida pozitiv, optimistik ustanovkalar va qadriyatlarni shakllantira oladigan va qo'llab-quvvatlaydigan shaxslarda ham deyarli uchramasligi aniqlangan.

"Yonish sindromi" terminining o'zi amerikalik psixiatr X.Dj.Fraydenberg tomonidan 1974 yilda psixologik va tibbiy amaliyotga kiritilgan bo'lib, asni paytda mazkur sindrom tibbiy aralashuvni talab qilishi Butunjahon Sog'liqni saqlash Tashkiloti tomonidan kasalliklarning Xalqaro klassifikatsiyasiga kiritilgan. Kasbiy so'nish sindromi simptomlarini mutaxassislar uchta guruhga ajratadilar:

**Psixofizik simptomlar bo'lib, bularga quyidagilar kiradi:**

1. Doimiy, o'tib ketmagan charchoqlikni faqat kechqurun emas, balki ertalab ham his qilish, garchi yaxshi uxlagan bo'lsa ham (surunkali charchash belgisi);
2. Emosional va jismoniy charchoqlikni his qilish;
3. Tashqi muhit o'zgarishlariga sezgirlik va reaktivlikning pasayishi (yangi narsaga befarqlik, xavfli vaziyatdan kuchli qo'rqish);
4. Umumiy astenizatsiya(holsizlik, faollik va energiyaning pasayishi, qonda bioximik moddalar va gormonal ko'rsatkichlarning kamayishi);
5. Tez-tez sababsiz bosh og'rishi, oshqozon-ichak tizimi buzilishlari;
6. Vaznni tez yo'qotish yoki ortishi;
7. To'liq yoki qisman uyqusizlik;
8. Doimiy tormozlashgan, uyquchan holat, kun davomida doimiy uyqu kelishi;
9. Jismoniy yuklama yoki emosional zo'riqishda nafas qisishi;
10. Tashqi va ichki sensor sezgirlikning keskin pasayishi;
11. Umrning qisqarishi (ayniqsa erkaklarda).

**Ijtimoiy-psixologik simptomlarga quyidagilar kiradi:**

1. Befarqlik, zerikish, passivlik, depressiya;
2. Yuqori qo'zg'aluvchanlik;
3. Tez-tez "portlash";
4. Doimiy ravishda negativ emosiyalarni kechinish, xattoki tashqi sabablar bo'lmasada, aybdorlik hissi, alamzadalik, uyalish, tortinchoqlik, siqilish;
5. Anglangan bezovtalanish;
6. Giper mas'uliyatlilik hissi, xuddi ishi o'xshamaydi yoki inson o'zi bu ishni uddasidan chiqa olmaydi;
7. Hayotiy va kasbiy ustanovkalarga umumiy negativ ustanovkalar(qancha harakat qilsangda, baribir bo'lmaydi).

**Xulq-atvor simptomlariga quyidagilar kiradi:**

1. Bajaradigan ishi tobora og'irroq va murakkabroq bo'lib borayotgandek tuyuladi;
2. Xodim o'z ish vaqtini keskin o'zgartiradi, ishga ancha erta kelib, juda kech ketadi yoki buning aksi;
3. Obyektiv zarurat bo'lish-bo'lmasligidan qat'iy nazar ishni uyiga olib ketadi, lekin uyida ham qilmaydi.
4. Rahbar qaror qabul qilishdan bosh tortadi, har xil bahonalar o'ylab topadi;

5. O'zining befoydaliligini his qilish, tashabbuskorlikning yo'qolishi, ishga va uning natijalariga befarqlik;
6. Muhim, ustuvor vazifalarni bajarmasdan, mayda detallar ustida uzoq vaqt ushlanib qolish, elementar avtomatik bajariladigan ishlarga ham uzoq vaqt sarflash;
7. Boshqa xodimlar va mijozlardan uzoqlashish, noob'yektiv tanqidiylik;
8. Spirtli ichimliklarni iste'mol qilish, ko'p chekish.

Shunisi qiziqki, kasbiy yonish sindromi yuqumli xarakterga ega bo'lib, butun bir tashkilot doirasida avj olishi mumkin. Bunga endi ko'proq rahbarlar sabab bo'lib, o'z xodimlariga haddan ziyod talablar qo'yib, bajarib bo'lmaydigan topshiriqlar berganida, mehnat natijalarinin baholash mezonlari obyektiv bo'lmaganida, personalni motivlashtirish va stimullashtirish sistemasi mavjud bo'lganida yuzaga kelishi aniqlangan.

Bir qator tadqiqotlarda aniqlanishicha kasbiy so'nish darajasining ortib borishi kasbiy stresslarga ham bog'liq. L.Roui kasbiy so'nish sindromining psixologik stress va stressga barqarorlikning past darajasi, irodaviy sifatlar va chidamlilikning pastligi bilan izohlaydi.

O'z navbatida ish joylaridagi stresslar bevosita professional so'nish bilan ham bog'liq. Kasbiy so'nish birinchi navbatda uning ikkinchi komponenti, ya'ni depersonalizatsiya, insonlar bilan ishlash, ularga xizmat ko'rsatish va yordam berish sohasida uchraydi. Kasbiy so'nish bunda kasbiy krizis sifatida ham baholanadi, birinchi navbatda o'zgarishlar shaxslararo o'zaro munosabatlar tizimida, o'zaro ta'sirga kirishish jarayonida kuzatiladi. Shifokor odamlarni, ya'ni bemorni ko'rgisi kelmaydi, tez charchaydi, befarqlik qiladi, mehnatidagi samaradorlik tushib ketadi.

T.Yu.Fokina kasbiy so'nish nisbatan yoshroq shifokorlarda uchrashini qayd etadi, chunki yoshlar ish o'rinlariga kelib, real vaziyat bilan to'qnash kelganlarida kasbiy "shok"ka tushadilar. Ayniqsa bu holat shifokorlarning 7,3 %ida kuchli namoyon bo'ladi. Bir vaqtning o'zida kasbiy so'nishning alohida belgilari 57,3% holatlarda kuzatiladi. Shu tariqa muallifning fikriga ko'ra, kasbiy so'nish 30 yoshgacha bo'lgan shifokorlar o'rtasida ko'proq uchraydi, mazkur holat yosh shifokorlarda dezadaptatsiyaning yuqori darajasidan dalolat beradi. O'qituvchilarda esa kasbiy so'nish fenomeni bolalarga nisbatan qahr-g'azab, dars o'tkazishni istamaslik hammani va hamma narsani baholash, doimiy bo'lar-bo'lmas nasihatgo'ylik qilish, ko'p holatlarda bolalarga nisbatan agressivlik ko'rinishida bo'ladi.

Shu tariqa ilmiy tadqiqotlarda o'qituvchilik kasbi eng murakkab mehnat turlari qatoriga kiritiladi, mazkur kasb doimiy ravishda sub'yektdan o'z ustida ishlashni, har tomonlama takomillashishni, shaxslilik va kasbiy sifatlarini rivojlantirib borishni talab etadi. Binobarin boshqa soha vakillariga qaraganda pedagogika sohasi xodimlarida professional kasalliklarga chalinish ko'rsatkichlari juda yuqoriligi ta'kidlanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga qaraganda o'qituvchilarda surunkali somatik kasalliklar ko'proq uchraydi.

K.K.Platonov kasbni yashash manbai bo'lgan va mos o'quv yurtlaridagi ta'lim bilan ta'minlanuvchi, ma'lum bilimlar, ko'nikma hamda malakalar mavjudligini talab qiluvchi mehnat faoliyati sifatida aniqlaydi. Bu ta'rifga Yu.V.Kotelova tomonidan berilgan ta'rif yaqinroq bo'lib, unga ko'ra kasb – bu faoliyatning tipik, tarixan shakllangan shaklidir, u ijtimoiy ma'noda zarur, uni bajarish uchun ishchi ma'lum bilimlar, ko'nikma va malakalar yig'indisiga, shuningdek, mos qobiliyatlar va shaxslilik xususiyatlariga ega bo'lishi zarur. "Kasbiy tayyorgarlik" tushunchasi mazmunini qarab chiqib, T.P.Vodolazskaya va G.S.Nikiforov shuni ta'kidlaydilarki, ixtisoslik faoliyat predmeti orqali ochiladi. U istagancha tor yoki keng bo'lishi mumkin, lekin har qanday holatda – bu mos ilmiy predmet orqali aks etuvchi ob'yektiv reallikning birmuncha bo'limlari haqidagi bilimlar yig'indisidir. Kasb – ob'yektiv zarur, maqsad orqali aniqlangan, reallikning mazkur bo'limi bilan bog'langan faoliyatning alohida turidir. Mazkur ta'riflarga tayangan holda mualliflar shunday xulosaga keladilarki, bir ixtisoslik doirasida real tarzda har biri o'z maqsadiga javob beruvchi mustaqil kasblar mavjud.

G.M.Bogoslovskiy tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, "konkret inson nuqtai nazaridan kasb – bu shunday faoliyatki, uning yordamida mazkur shaxs jamiyat hayotida ishtirok etadi hamda u yashashning moddiy vositalari asosiy manbaidir".

Ye.A.Klimov tomonidan ochib beriluvchi "kasb" tushunchasi yanada to'laroq xarakterga ega. Kasb bu:

- shunday sohaki, unda inson mehnat sub'yekti sifatida o'z funksiyalarini amalga oshiradi;
- ma'lum turdagi mehnat vazifalarini amalga oshiruvchi kishilar jamoasi;
- insonga xos tayyorgarlik (bilimlar, ko'nikmalar, malakalar), ular tufayli inson ma'lum turdagi mehnat funksiyalarini bajarish imkoniyatiga ega bo'ladi;
- faoliyat, professional ishi, ya'ni mehnat va kasbiy bajariladigan funksiyalarni amalga oshirish jarayonining o'zi[1].

1 Климов Е.А. Психология труда. М. 2011.-Б. 211.

Pedagog kasbiy faoliyati, mashg'ulotlar turi kabi, pedagogika sohasiga taalluqli bo'lib, bir nechta sohalar (ixtisosliklarni) va faoliyatning turli-tuman predmetlari –ixtisoslashuvni o'z ichiga oladi. O'qituvchi kasbiy faoliyati tahlili professionalizm kategoriyasini qo'llashni taqozo etadi. A.K.Markova professionalizm talqinining bir nechta jabhalarini ko'rsatib o'tadi. Birinchisi – bu "normativ professionalizm" bo'lib, mehnatni muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo'lgan insondagi shaxslilik xususiyatlari yig'indisi sifatida qaraladi. Boshqa ma'noda professionalizm tushuncha sifatida psixik sifatlar zaruriy normativ to'plamiga ega bo'lgan mehnat sub'yekti xarakteri stikasini aks ettiradi. Va nihoyat, professionalizm mehnat sub'yekti yuqori bahoga loyiq bo'lgandagi normativ funksiyalarini bajarish sifati tushuniladi[2]. A.K.Markova shaxs professionalizmining ikki tomoni va yettita mezon guruhlari, o'ziga xos bosqichlari va pog'onalarini, shuningdek, ichki o'zaro aloqadorligi kasbiy faoliyatning ob'yektiv jarayonlari sifatida shartlangan beshta professionalizm darajasini ajratib ko'rsatadi. Bu darajalar quyidagilar:

- professionalizmgacha bo'lgan daraja;
- professionalizm;
- superprofessionalizm;
- professional bo'lmagan yoki qalbaki professionalizm;
- professionalizmdan keyingi daraja.

Pedagogika instituti talabalarida shaxsiy sifatlar shakllanishini o'rgangan S.X.Jalilova "ideal o'qituvchi bo'lajak o'qituvchi shaxsini rivojlantirishning asosiy vositasi ekanligini ta'kidlaydi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

1-jadval: **Tadqiqotda ishtirok etgan sinaluvchilar haqida ma'lumot**

| | boshlang'ich ta'lim | aniq fanlar o'qituvchilari | Til o'qituvchilari | Jami |
|---|---|---|---|---|
| **Erkaklar** | 25 | 17 | 7 | 49 |
| **Ayollar** | 4 | 16 | 21 | 41 |
| **Jami** | 29 | 33 | 28 | 90 |

2-jadval: **"Emosional so'nish" bo'yicha birlamchi tahlil natijalari**

| | n | minimal | maksimal | o'rtacha | Standart og'ish |
|---|---|---|---|---|---|
| **Zo'riqish** | 90 | 10.00 | 120.00 | 68,000 | 2.61822 |
| **Rezistensiya** | 90 | 14.00 | 115.00 | 74.6778 | 9.36264 |
| **"Sillasi qurish"** | 90 | 1.00 | 118.00 | 73.9556 | 2.24815 |

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, olingan natijalar normal taqsimlanish qonuniga mos kelar ekan.

Emosional so'nish holati erkaklar yoki ayollarda qay darajada ekanligini bilish maqsadida jins tafovutlarini tahlil qilishga harakat qilamiz

3-jadval: **Boyko metodikasi bo'yicha jins tafovutlari**

| | Jinsi | N | O'rtacha | Standart og'ish | t | Ishonch darajasi (r) |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Zo'riqish** | Ayollar | 41 | 67.67 | 3.854 | 2.924 | .009 |
| | Erkaklar | 49 | 77.87 | 2.763 | | |
| **Rezistensiya** | Ayollar | 41 | 72.93 | 4.339 | .396 | .694 |
| | Erkaklar | 49 | 75.53 | 3.441 | | |
| **"Sillasi qurish"** | Ayollar | 41 | 73.87 | .629 | -1.948 | .056 |
| | Erkaklar | 49 | 74.23 | .817 | | |

Natijalarni tahlili vaqtida zo'riqish ko'rsatkichi bo'yicha ishonch darajasidagi farqlarni kuzatishimiz mumkin ($t=2,92$; $p<0,01$).

2 Маркова А.К. Психология профессионализма. – М.: Дрофа, 1996. – Б.128с.




1-rasm: **Boyko metodikasi bo'yicha jins tafovutlari**

Erkaklarda zo'riqishga moyillik holatlarini kuzatishimiz mumkin. Ayollar o'zlaridagi zo'riqishlarni emosional hissiyotlar orqali chiqarish imkoniyatlariga ega ekanlar, erkaklarda bu bir muncha boshqacharoq holatda kechar ekan ulardagi zo'riqish holatlari yaqqol namoyon bo'lar ekan. Qolgan shkalalar bo'yicha erkak va ayollar ko'rsatkichlarida ishonch darajasidagi farqlar kuzatilmadi, ya'ni emosional so'nish holatiga erkaklar ham ayollar ham bir xilda moyil bo'lishlari mumkin ekan.

Keyingi holatda biz o'qituvchi kasbining turli mutaxassislari emosional so'nishga qay darajada moyil ekanliklarini kuzatishimiz mumkin.

4-jadval: **Mutaxassisliklar bo'yicha so'nish holatlari tafovutlari**

| Ko'rsatkichlar | Boshlang'ich ta'lim (n=29) | Aniq fanlar o'qituvchilari (n=33) | Til o'qituvchilari (n=28) | F | Ishonch darajasi |
|---|---|---|---|---|---|
| **Zo'riqish** | 75.0000 | 73.6000 | 84.0000 | 4.761 | .0 09 |
| **Rezistensiya** | 82.7000 | 62.6000 | 75.5000 | 4.214 | .012 |
| **"Sillasi qurish"** | 64,12 | 84,47 | 64,17 | 3.773 | .045 |

Yuqorida keltirilgan jadvaldan ko'rinib turibdiki har bir shkala bo'yicha ishonch darajasidagi farqlarni kuzatishimiz mumkin. Zo'riqish fazasi bo'yicha olingan natijalarda til o'qituvchilarida yuqori natija kuzatilganligini aniqladik (F=4,761; p<0,05). Til o'qituvchilari "Psixologik travmani keltirib chiqaruvchi vaziyatlar, O'zidan qoniqmaslik, Qafasda qolganlik", "Xavotirlik va depressiya" boshqa pedagog mutaxassislarga nisbatan yuqori ekanligini kuzatishimiz mumkin, ehtimol ularning bir joyda ishlashlari va asosan xujjat ishlari bilan ko'p shug'illanganliklari sababli bo'lsa kerak, til o'qituvchilari asosan shifoxonadan tashqariga chiqmaydilar, albatta ulardagi havotirlikni oshishi shuning natijasida bo'lishi mumkin, til o'qituvchilarining oldiga katta ham kichik ham birdek murojaat qiladi, buning natijasida ularda kasbi bo'yicha ba'zi bir holatlarda o'zini kompitent sifatida idrok qilishiga sabab bo'lishi mumkin.




2-rasm: **Zo'riqish shkalasi bo'yicha guruhiy tafovutlar**

Rezistensiya shkalasi bo'yicha ham ishonch darajasidagi farqlarni kuzatishimiz mumkin (F=4,21; p<0,05). Bu boshlang'ich ta'limda yuqori chiqqanligi aniqlandi.




3-rasm: **Rezistensiya shkalasi bo'yicha guruhiy farqlar**

Bu shkala "Emosional ta'sir ostida noadekvat tanlovchanlikni, emosional ahloqiy jihatdan yo'lini yo'qotganlikni, emosional jihatdan tanqislik holatlarini, kasbiy majburiyatlarni oshishi natijasida paydo bo'ladi. Ko'pincha boshlang'ich ta'limning o'qituvchilarida bu shkala bo'yicha so'nishini yuqori chiqishi achinarli hol, agar ularda ahloqiy jihatdan me'yorlarni yo'qotib bolalarning bilimlarini moddiy manbalarga bog'lab o'lchashlaridan dalolat berishi mumkin.

Sillasi qurish shkalasida ham ishonch darajasidagi farqlar maqjudligini kuzatishimiz mumkin (F=3,77; p<0,05). Bu faza bo'yicha aniq fanlar o'qituvchilarida yuqori natija kuzatildi.




4-rasm: **Sillasi qurish fazasi bo'yicha guruhiy tafovutlar**

Aniq fanlar o'qituvchilarida emosional tanqislik, emosional jihatdan sillasi qurganlik yuqori ekan, ehtimol ulardagi moddiy jihatdan ta'minlanganlik ba'zi bir holatlarda emosional diskomfort xissini keltirib chiqarishi mumkin ekan. Hozirgi kunda aniq fanlarga alohida e'tibor qaratilishi va qo'shimcha darslarning birida matematika, fizika yoki informatika fanlarining o'qitilishiga ota-onalar tomonidan katta e'tibor qaratilishi oxir oqibatda ularning sillasini qurishiga sabab bo'lgan bo'lsa ajab emas.

Biz kasbiy so'nish holatlari pedagoglarning ish stajiga ta'sir qiladimi yoki yo'qligini aniqlashga intildik, buning uchun biz o'qituvchilarni shartli ravishda uch guruhga ajratdik 5 yil ish stajiga ega bo'lganlar; 5-10 yil ish stajiga ega bo'lganlar va 15 yildan ortiq ish stajiga ega bo'lganlar.

5-jadval: **Boyko metodikasi va ish staji bo'yicha farqlari**

| Ko'rsatkichlar | 5 yilgacha (n=29) | 5-10 yil (n=33) | 15 yildan yuqori (n=28) | F | Ishonch darajasi |
|---|---|---|---|---|---|
| **Zo'riqish** | 70.0000 | 73.11 | 84.17 | 4. 61 | .0 09 |
| **Rezistensiya** | 62.480 | 62.21 | 78.50 | 4.14 | .012 |
| **"Sillasi qurish"** | 60,12 | 65,47 | 84,12 | 3.73 | .045 |

Natijalarning tahlilini kuzatadigan bo'lsak hamma shkalalari bo'yicha ya'ni zo'riqish (F=4,61; p<0,05), rezistensiya (F=4, 14; p<0,05), sillasi qurish (F=3,73; p<0,05) bo'yicha ishonch darajasidagi farqlar mavjudligini kuzatishimiz mumkin. O'qituvchilarning ish staji qanchalik kam bo'lsa kasbiy so'nish holatlari past bo'lar ekan, ularning ishlash yillari organi sayin ularda kasbga nisbatan so'nish holatlari juda ko'p kuzatilar ekan. Ehtimol ulardagi bu holatlar aynan bir joyning o'zida necha yillar mobaynida ishlash natijasida kelib chiqqan bo'lsa ajab emas, shu sababli ham kasbiy jihatdan bir joyda ishlash ijobiy natija bermasligi mumkin ekan.




5-rasm: **Ish staji va boyko metodikasi bo'yicha umumiy holatlar**

Biz yuqoridagi bo'limga xulosa qilar ekanmiz kasbiy so'nish omillari bir qator jihatlarga bevosita bog'liq bo'lar ekan, ya'ni o'zini nazorat qilish holatlari, jinsi, kasbiy mutaxassisliklari va ishlash muddati.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida shuni ta'kidlash mumkinki, o'qituvchilarda kasbiy so'nish (emosional yonish) holati bir qator ijtimoiy-psixologik va kasbiy omillar bilan chambarchas bog'liqdir.

*Birinchidan,* Boyko metodikasi asosida olingan natijalar kasbiy so'nishning uch asosiy komponenti – zo'riqish, rezistensiya va "sillasi qurish" bosqichlari pedagoglarda turli darajada namoyon bo'lishini ko'rsatdi. Ayniqsa, zo'riqish ko'rsatkichida jinslar o'rtasida sezilarli farq aniqlanib, erkak o'qituvchilarda bu holat nisbatan yuqoriroq ekanligi qayd etildi.

*Ikkinchidan,* mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha ham ahamiyatli tafovutlar mavjud bo'lib, til o'qituvchilarida zo'riqish darajasi yuqoriligi, aniq fan o'qituvchilarida esa "sillasi qurish" holati kuchliroq namoyon bo'lishi aniqlandi. Bu holat har bir fan yo'nalishining ish yuklamasi, psixologik talablar va mehnat sharoitlari bilan izohlanadi.

*Uchinchidan,* ish staji kasbiy so'nish darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatishi aniqlandi: ish tajribasi ortgan sari zo'riqish, rezistensiya va emotsional charchash ko'rsatkichlari ham oshib borishi kuzatildi. Bu esa uzoq muddat bir xil muhitda ishlash, psixoemotsional yuklamaning to'planishi bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

Umuman olganda, tadqiqot natijalari kasbiy so'nishning shakllanishi ko'p omilli jarayon ekanligini tasdiqlaydi. U shaxsiy xususiyatlar, jins, kasbiy yo'nalish va ish staji kabi omillar bilan birgalikda rivojlanadi. Shu sababli, pedagoglarda kasbiy so'nishning oldini olish uchun psixologik qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, mehnat sharoitlarini optimallashtirish hamda stressga chidamlilikni rivojlantiruvchi dasturlarni joriy etish muhim hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasi rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2017. 6-son 70-modda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida" gi farmoni. 05.07.2017.PF-5106.
2. Есарева, З.Ф. Особенности деятельности преподавателя высшей школы. / З.Ф. Есараева. – Л.: Изд-во Ленинградский университет, 1993. – С 152.
3. Ефремов, К. Эмоциональное выгорание и как с ним бороться / К. Ефремов // Народное образование. – 2005. – №3. – С.118-123.
4. Иванникова, Н.Н. Синдром менеджера, или Профилактика профессионального выгорания / Н. Н. Иванникова. – М.: Дашков и Ко, 2009. – 207 с.
5. Климов Е.А. Психология труда. М. 2011.-Б. 211.
6. Маркова А.К. Психология профессионализма. – М.: Дрофа, 1996. – Б.128с.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha) |
| 13.00.07 | Ta'limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2026. №6(4)**



© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.